

Noyabr, 2024-Yil

MAKTAB O'QUVCHILARINI BILIMINI TEKSHIRISH VA MUSTAHKAMLASHDA
NOSTANDART TESLARDAN FOYDALANISH VA UNING AHAMIYATI

Miraxmedova Sarvinov Xasan qizi

Toshkent viloyati Chinoz tumani 34-sonli umumta'lim maktabining

Tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14043691>

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktab o'quvchilarining bilimni tekshirish va uni mustahkamlashda nostandart testlardan foydalanishga oid metodik tavsiyalar yoritilgan.

Tayanch so'zlar: chizmachilik, test, an'anaviy test, nostandart test, bilim, ko'nikma, baho.

USE OF NON-STANDARD TESTS AND ITS SIGNIFICANCE IN VERIFYING AND
STRENGTHENING THE KNOWLEDGE OF SCHOOL STUDENTS

Abstract. This article describes methodical recommendations regarding the use of non-standard tests to check the knowledge of schoolchildren and strengthen it.

Key words: drawing, test, traditional test, non-standard test, knowledge, skill, assessment.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ НЕСТАНДАРТНЫХ ТЕСТОВ И ЕГО ЗНАЧЕНИЕ В
ПРОВЕРКЕ И ЗАКРЕПЛЕНИИ ЗНАНИЙ ШКОЛЬНИКОВ

Аннотация. В данной статье изложены методические рекомендации по использованию нестандартных тестов для проверки знаний школьников и их закрепления.

Ключевые слова: рисунок, тест, традиционный тест, нестандартный тест, знания, умения, оценка.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil, 5-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy o'quv yurtlari uchun talabalarni test usulida qabul qilish to'g'risida"gi Qarori O'zbekistonda MDH davlatlari ichida birinchi bo'lib testdan foydalanishga keng yo'l ochib berdi.

Maktab chizmachilik darslarida darajali testlardan foydalanish orqali o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimni mustahkamlash va rivojlantirishda zamon talabiga javob bera oladigan darajali test ishlanmalarini tayyorlab, uslubiy tavsiyalarni o'qituvchilar o'z pedagogik faoliyatida qo'llab, o'quvchilarni bilimni tekshirishda maktab o'quvchilarda nazariy va amaliy bilimni mustahkamlashda yetarli darajada shakllanganligi ularning chizmachilik fanini o'zlashtirishlarida, grafik topshiriqlarni bajarishlarida ijodiy yondashish va yangicha yechim usullarini izlashga undaydi.

Noyabr, 2024-Yil

Test (inglizchadan “test” – sinash, tekshirish, o‘rganish) – aniq maqsad asosida muayyan holat darajasini sifat va miqdoriy ko‘rsatkichlarda belgilashga imkon beruvchi sinov vositasi sanaladi.

Psixologik testlardan boshqa barcha testlarni quyidagi uch guruhga ajratish mumkin: *intellektual rivojlanish darajasini aniqlovchi testlar; pedagogik testlar; muayyan kasbga yaroqlilikni aniqlovchi testlar.*

Ta’lim sohasidagi pedagoglarning faoliyatlari kuzatilgan ularning o‘quvchilar bilimini baholashlarida yo‘l qo‘yayotgan kamchiliklari ko‘zga tashlanmoqda. Bahoni bekor qilish pedagogik va psixologik jihatdan o‘zini oqlamaydi. Baholashning qator kamchiliklari bo‘lsada, besh ballik baho tizimiga muqobil xili topilgani yo‘q. Shuning uchun gap uni takomillashtirish, o‘quvchilar bilimini baholashda xatoga yo‘l qo‘ymaslik haqida borishi kerak.

Bilimni tekshirishda o‘quvchilarning chizmachilik mashg‘ulotlaridagi bilim, ko‘nikma va malakalarini hisobga olish usullari quyidagicha bo‘lishi mumkin: *ish jarayonida o‘quvchilarni kuzatish; og‘zaki so‘rov; test orqali; grafik ishlar va uy ish daftarlarini baholash; nazorat ishlari; masalalar yechish; o‘quvchilarning amaliy ishlari (modellash, konstruksiyalash va hokazolar) va boshqalar.*

A.A.Verbitskiy o‘quv jarayonida qo‘llaniladigan didaktik testlarni ilmiy asoslashni taklif qiladi. “Bunda pedagogik test o‘quvchining kasbiy tayyorgarligini emas, o‘quv fanidan bilim va ko‘nikmalarini aniqlashga xizmat qilishi kerak bo‘ladi. Demak, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini test yordamida aniqlash mumkin va zarur. Test sinovining natijalari sifati quyidagi vositalar bilan yaxshilanadi: *test topshiriqlari sonining ko‘paytirilishi bilan; test topshiriqlari mohiyatini tushunishning bir xilligi bilan; testlov sharoiti bir xilligini ta’minlash bilan.*

An’anaviy test - har xil javob variantli savollardan tashkil topgan. Har bir savol ma’lum balga baholanadi. An’anaviy testning natijasi to‘g‘ri berilgan javobli topshiriqlar miqdori bilan belgilanadi. An’anaviy testning quyidagi ko‘rinishlari mavjud: 1. Bitta to‘g‘ri javobni tanlashga oid topshiriq. 2. Ochiq testlar. 3. Yopiq testlar.

Nostandart testlar mazmuni va mohiyatiga ko‘ra quyidagi guruhlariga ajratiladi: 1. Integrativ testlar (integral mazmun va shakldagi testlar). 2. Adaptiv testlar (avtomatlashtirilgan test). 3. Mezonli-mo‘ljall olish testlari (ta’lim oluvchining umumiy tayyorgarlik darajasini aniqlash uchun o‘tkaziladigan testlar).


Nostandart test shakllarini uning qanday mazmunga ega ekanligiga ko‘ra quyidagilarga bo‘lishimiz mumkin.

Noyabr, 2024-Yil

1. O'quvchilarning bilishga oid o'quv maqsadiga erishilganlik darajasini nazorat qilish va baholashda foydalaniladigan nostandart test topshiriqlari.
2. O'quvchilarning tushunishga oid o'quv maqsadiga erishilganlik darajasini nazorat qilish va baholashda foydalaniladigan nostandart test topshiriqlari.
3. O'quvchilarning bilimlarni amalda qo'llash o'quv maqsadiga erishilganlik darajasini nazorat qilish va baholashda foydalaniladigan nostandart test topshiriqlari.
4. O'quvchilarning tahlilga oid o'quv maqsadiga erishilganlik darajasini nazorat qilish va baholashda foydalaniladigan nostandart test topshiriqlari.
5. O'quvchilarning bilimlarni sintezlash o'quv maqsadiga erishilganlik darajasini nazorat qilish va baholashda foydalaniladigan nostandart test topshiriqlari.
6. O'quvchilarning hulosa yasashga oid o'quv maqsadiga erishilganlik darajasini nazorat qilish va baholashda foydalaniladigan nostandart test topshiriqlari.

Nostandart test - birgina matnli turli topshiriq, testlar uchun ishlatish mumkin. Rasmlari va ko'p javobli nostandart test topshiriqlari o'quvchilarning o'zlashtirgan nafaqat bilimlarini, balki obyekt va uning qismlarini tanish, o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash ko'nikmalarini nazorat qilish baholash jarayonini haqqoniy va odilona amalga oshirish imkonini beradi. O'quvchilarning bilimlarni amalda qo'llash o'quv maqsadiga erishilganlik darajasini nazorat qilish va baholashda foydalaniladigan nostandart test topshiriqlari, nostandart testga misollar keltirilgan. Masalan, nostandart testning 1-turini olaylik: o'quvchilarning bilishga oid o'quv maqsadiga erishilganlik darajasini nazorat qilish va baholashda foydalaniladigan nostandart test topshiriqlari.

Test savoli sharti: rasmda berilgan detal ko'rinishlariga mos raqamlarni aniqlang va yozing.



Qirqim turlari nomi	Raqamlar
---------------------	----------

Noyabr, 2024-Yil

Profil qirqim	3
Frontal qirqim	1
Ko'rinishni yarmi bilan qirqimning yarmini birlashtirish	2
Gorizontal qirqim	4

Yoki nostandart testing 2-turini olaylik: O'quvchilarning tushunishga oid o'quv maqsadiga erishilganlik darajasini nazorat qilish va baholashda foydalaniladigan nostandart test topshiriqlari.

Test savoli sharti: detal ko'rinishlarini qaysi proyeksiyalar tekisligida bajarilishining xususiyatlari bilan juftlang.

1.	Olddan koʻrinish	A	Detalning proyeksiyasi gorizontal proyeksiyalar tekisligida bajariladi.		
2.	Ustdan koʻrinish	B	Detalning proyeksiyasi profil proyeksiyalar tekisligida bajariladi, buning uchun detalga oʻng tomondan qaraladi.		
3.	Chapdan koʻrinish	C	Detalga uning old tomonidan qaraladi va proyeksiyasi frontal proyeksiyalar tekisligida bajariladi.		
4.	Oʻngdan koʻrinish	D	Detalning proyeksiyasi profil proyeksiyalar tekisligida bajariladi.		
Javob;		1-	2-	3-	4-

To'g'ri javobi:

Javob;	1-C	2-A	3-D	4-B
---------------	------------	------------	------------	------------

Shu bilan birga test sinovlarini umuman kamchiliklardan holi, deb bo'lmaydi. Test sinovlarining ko'pgina shakllari o'quvchini mustaqil ravishda javoblarni tayyorlash tajribasidan mahrum etadi. Bu sinovlarda o'quvchining psixologik faoliyati «erkin shakldagi» javoblardan farqlanadi, o'quvchining individual tomonlari, aql-zakovati namoyon bo'lmaydi. Bilimi sinalayotgan shaxs faqat to'g'ri javobni tanlaydi, xolos. O'quvchilarning bilimini test yordamida tekshirish va bilimni mustahkamlash yaxshi natijalarni beradi. Biroq, o'quvchilarning chizma geometriya va chizmachilik fanlaridan egallagan bilimlarini aniqlash va uni baholashda tekshirishning faqat test usulidan foydalanish maqsadga muvofiq emas. Testdan ham o'z o'rnida maqsadli foydalanish o'qitishda samaradorlik va sifatga olib keladi.

XULOSA

Xulosada aytishim mumkinki, maktab chizmachilik fanini yanada chuqurroq o'rganish maqsadida o'quvchilarda fikrlash qobiliyatini va chizmani o'qiy olish ko'nikmasini rivojlantirish uchun. Mazkur tadqiqot ishidan zamon talabiga javob bera oladigan darajali test ishlanmalarini tayyorlab, elektronlashtirilgan testlardan foydalanish va uslubiy tavsiyalarni o'qituvchilar o'z pedagogik faoliyatida qo'llab, o'z maktab o'quvchilarining chizmachilik darslarida darajali testlardan foydalanish orqali o'quvchilarni bilimni tekshirish va baholashdan tashqari o'rgatishga yo'naltirilgan test orqali berilgan savollardan javobini bilish imkoniyatini ishlab chiqib, bizning tadqiqot ishimizda chiqarilgan xulosalar, maktab o'quvchilarda nazariy va amaliy bilimni mustahkamlashda yetarli darajada shakllanganligi ularning chizmachilik fanini o'zlashtirishlarida, grafik topshiriqlarni bajarishlarida ijodiy yondashish va yangicha yechim usullarini izlashga undaydi.

REFERENCES

1. A.Abdurahmonov. Chizmachilikdan grafik ishlar tizimi, "Cho'lpon" nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, T. ,2005 y.
2. Inoyatov U.I., Muslimov N.A., Usmonboyeva M., Inog'omova D. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob. –T.: "TDPU rizografi", 2012 y.
3. Mavlonova R., To'rayeva O., Xoliqberdiyeva K. Pedagogika. –T.: «O'qituvchi», 2010 y.
4. <https://lex.uz>.

MODERN SCIENCE
& RESEARCH